

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA YOSHLARGA QARATILGAN E'TIBOR

*Yigitaliyev Bobur Bohodir o'g'li
Farg'onova viloyati yuridik texnikumi
"Davlat huquqiy faoliyat" yo'nalishi
1-bosqich 29-23 guruh o'quvchisi
Telefon: +998916529822
E-mail: boburyigitaliev9822@gmail.com*

Annotation: Mazkur maqolada mamlakatimizda Konstitutsiya va qonun hujjalarda yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni ta'minlash, yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga, ular uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar borasida me'yordarning belgilanganligi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Конституция, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol tortiriш.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что в Конституции и законодательстве нашей страны установлены нормы, касающиеся условий, созданных для обеспечения прав, свобод и законных интересов молодежи, сохранения жизни и здоровья молодежи, духовного, интеллектуального, физического и нравственного совершенствования молодежи, обеспечения доступного и качественного образования.

Ключевые понятия: Конституция, права, свободы и законные интересы молодежи, сохранение жизни и здоровья молодежи, духовное, интеллектуальное, физическое и нравственное совершенствование молодежи.

Abstract: In this article, the Constitution and legislation in our country mention the establishment of standards for ensuring the rights, freedoms and legitimate interests of young people, maintaining the life and health of young people, ensuring the spiritual, intellectual, physical and moral maturation of young people, ensuring an open and high-quality education for them.

Key concepts: Constitution, rights, freedoms and legitimate interests of young people, preservation of life and health of young people, spiritual, intellectual, physical and moral maturation of young people.

Mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab O'zbekiston Respublikasida yoshlarga e'tibor, bir zum bo'lsa ham Hukumatimiz e'tiboridan chetda qolmagan.

Ayniqsa, keyingi yillarda Prezidentimiz ta’lim tizimiga, yoshlarning ta’lim va tarbiyasiga alohida ahamiyat berilayotgani biz yoshlarga katta umid va faxr beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ko‘p ma’ruzalarida davlatimizning yoshlar masalalariga dolzarb, mamlakat kelajak taraqqiyoti masalasi sifatida yondoshilayotganligi ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, “Biz “inson qadri, uning huquq va manfaatlari – oliv qadriyat”, degan tamoyildan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz aholisi uchun munosib turmush sharoitini yaratishni Yangi O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilaganmiz.

Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni jismoniy va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz”,¹ - deganlarida ham, “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin”² deya ta’kidlaganlaridan ham bu masala qanchalik muhim ekanligini anglash qiyin emas.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida (2017 yil, 19 sentyabr) Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish taklifi bilan chiqishlari, koronavirus pandemiyasi tufayli onlayn muloqot rejimida bo‘lib o‘tgan 75-sessiyasida (2020 yil, 23 sentyabr) esa tarixda ilk bor davlat tilida - o‘zbek tilida ma’ruza qilib, ko‘pgina muhim masalalar qatorida Yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyani qabul qilishga oid tashabbusni ilgari surishlari jahon hamjamiyatining e’tirofiga sazovor bo‘ldi.³

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

Joriy yilning 30 aprel kuni mamlakatimiz tarixida muhim siyosiy jarayon, ya’ni Yangi O‘zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasining qabul qilinishi yuzasidan umumxalq referendumi bo‘lib o‘tdi. Keng omma muhokamasidan o‘tgan va 65 foizga o‘zgargan Bosh qomus loyihasi muvaffaqiyatli yoqlab ovoz berish jarayonidan o‘tdi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdag‘i bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/5696>.

² Shavkat Mirziyoyev: yoshlar tarbiysi – eng muhim masalalardan. <https://sogolom.uz/archives/8338>

³ R.X.Djurayev. Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlarda ma’naviyatni tarbiyalash haqida. “Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanı, may 15-16, 2023. 267-bet.

Yangi konstitutsiyada yoshlarga doir me'yorlar ham ancha mukammal, yangicha mazmun bilan boyitildi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 78-moddasida davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi deb belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, konstitutsiyaning 79-moddasida davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi, yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi haqidagi me'yorlar o'z ifodasini topdi.

Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish kabi ko'plab talablarni qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutuvchi huquqiy baza shakllantirildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi⁴ 2021 yil 18 yanvar 23-sont Qarori⁴ bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilga rivojlantirish konsepsiyasini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030 yilgacha mo'ljallangan "Yoshlar strategiyasi", Yoshlar manfaatlari bo'yicha butunjahon harakatlar dasturi, 2020 yil dekabr oyida tashkil etilgan "O'zbekiston yoshlari" forumida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi o'rqi-406-sont "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi⁵ qonuni⁵ qabul qilingan bo'lib, unda **yoshlarga oid**

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2021 yil 18 yanvar 23-sont Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/5234746>.

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi o'rqi-406-sont "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/3026246>

davlat siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidan iborat ekanligi ko‘rsatib qo‘yildi.

Mazkur Qonunning 5-moddasida O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagi, ya’ni yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash; yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash; yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minalash; yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash; yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish; yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish; iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish; yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish; yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlardan iborat etib belgilandi.

Yuqorida aytib o‘tilgan fikrlardan shu narsa ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash, yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga, ular uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minalash uchun ishonarli va mukammal huquqiy mexanizm, huquqiy baza yaratildi. Bu esa biz yoshlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi, biz esa bundan unumli foydalanishga bor kuchimizni qaratishimiz kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi o‘rq-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni. <https://lex.uz/docs/3026246>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021 yil 18 yanvar 23-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/5234746>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/5696>.
5. Shavkat Mirziyoyev: yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan. <https://sogлом.uz/archives/8338>.
6. R.X.Djurayev. Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlarda ma’naviyatni tarbiyalash haqida. “Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani, may 15-16, 2023. 267-bet.